



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

7 ЖИЛД, 2 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ТОМ 7, НОМЕР 2

LOOK TO THE PAST
VOLUME 7, ISSUE 2



ТОШКЕНТ-2024

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори,
профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари
университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори, доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика
университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори, доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори,
Тошкент ирригация ва кишлоқ
хужалиғини механизациялаш
муҳандислари институти
Миллий тадқиқот университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайжон давлат
иқтисодиёт университети

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори, профессор,
Қариши муҳандислик-иқтисодиёт
институти

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжасва Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори, профессор
Қариши давлат университети

Махкамova Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент ахборот технологиялари
университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори, доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари доктори
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Джоробекова Айнуэр Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонкулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори, профессор
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори, профессор
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори, профессор,
Қозоғистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори, профессор,
Қозоғистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Алиева Лале
тарих фанлари доктори,
Озарбайжон давлат университети

Санпова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори,
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc)
Ўзбекистон Миллий университети

Худайкулов Тулқин Дўстбобоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз далам педагогика институти

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети


Page Maker | Верстка | Са, ифаловчи: @tadqiqotdesign

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


1. Чу Бей Бей ЗАМОНАВИЙ ДУНЁДА МАДАНИЙ-ИҚТИСОДИЙ АЛОҚАЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА БУЮК ИПАК ЙЎЛИНИНГ ЎРНИ.....	4
2. Yoo In Young ILK O'RTA ASRLARDA MARKAZIY OSIYO XALQLARINING SILLA QIROLLIGI BILAN IQTISODIY VA MADANIY ALOQALARI.....	9
3. Umurzok Alibekov USTRUSHONA DENQONCHILIK MADANIYATI TADRIJIY TARAQQIYOTIDA ARXAİK DENQONCHILIK AN'ANALARINING O'RNI.....	14
4. Нилуфар Джураева ЖАДИДЧИЛИК: МИЛЛИЙ МАОРИФ ТИЗИМИГА АЁЛЛАРНИ ЖАЛБ ЭТИШ МАСАЛАСИ.....	23
5. Обиджан Мадаминов ДАВЛАТНИНГ ХАЛҚАРО ИМИЖИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ, УНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ВА ТАРҒИБ ҚИЛИШ МАСАЛАСИ.....	31
6. Моҳира Матназарова ҚАДИМГИ ХОРАЗМ КЎЧМАНЧИ ЧОРВАДОРЛАРИНИНГ ҲУДУДИЙ ЖОЙЛАШУВИ МАСАЛАЛАРИ.....	36
7. Сапарбой Наврузов АКАДЕМИК РАССОМ ДМИТРИЕВ КАВКАЗСКИЙНИНГ ХИВА ТААССУРОТЛАРИ.....	41
8. Ismoil Nurmetov XX ASRNING 20-30 YILLARIDA O'ZBEKISTONDA HUQUQ-TARTIBOT ORGANLARI FAOLIYATI (Xorazm viloyati misolida).....	50
9. Севара Пулатова МАДАНИЙ ОМИЛЛАРНИНГ ИҚТИСОДИЙ ЎСИШГА ТАЪСИРИ ХУСУСИДА.....	56
10. Sardor Umarov BIRLASHGAN GERMANIYA: IJTIMOIY-IQTISODIY MUAMMOLAR.....	62
11. Баҳодир Эшов ҚАДИМГИ СЎҒДНИНГ МИНТАҚАВИЙ МИГРАЦИЯ ТИЗИМИДАГИ ЎРНИ.....	69
12. Одил Эргашев ҚОПЧИҒОЙ УСТАХОНАСИ МУСТЪЕ ДАВРИ КОМПЛЕКСИНИНГ МАДАНИЙ-ДАВРИЙ ХОСЛИГИ ҲАҚИДА.....	76



Ismoil Alimbayevich Nurmetov,
Urganch Davlat Universiteti
“Tarix” kafedrasida katta o’qituvchisi, PhD.
ismoil_nur84@mail.ru

XX ASRNING 20-30 YILLARIDA O‘ZBEKISTONDA HUQUQ-TARTIBOT ORGANLARI FAOLIYATI (Xorazm viloyati misolida)

For citation: Ismoil A. Nurmetov. ACTIVITY OF LAW ENFORCEMENT AGENCIES OF UZBEKISTAN IN THE 20-30S. XX CENTURY (using the example of the Khorezm region). Look to the past. 2024, vol. 7, issue 2, pp.50-55

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.10643345>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Xorazm vohasida huquq-tartibot organlari faoliyati aks etgan. Jumladan, Xorazm Xalq respublikasida yangi boshqaruv shaklidagi hokimiyat tuzilishi uchun qurultoy o’tkazilishi. Xorazm Xalq respublikasining navbatdagi qurultoyida hukumat tarkibidagi nozirliklarda bir qator o’zgartirishlar amalga oshirildi. Jumladan, Adliya qoshidagi militsiya boshqarmasi Ichki ishlar nozirligi ixtiyoriga o’tkazildi.

Ayni paytda, Xorazm Xalq respublikasi rahbarlari qatori Ichki ishlar nozirligi rahbarlari qishloq xo’jaligidagi qayta tiklash bo’yicha islohotlar o’tkazish bilan birga ichki muxolifatchi kuchlarga qarshi ham kurash olib borishga majbur bo’ldilar.

Kalit so’zlar

O‘zbekiston Respublikasi, Xiva xonligi, Xorazm Xalq respublikasi, Ichki ishlar nozirligi, Markaziy ijroiya komiteti, O‘zbekiston SSR.

Исмаил Алимбаевич Нурметов,
Ургенчский государственный университет
Старший преподаватель кафедры «История», Ph.D.
ismoil_nur84@mail.ru

ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ПРАВООХРАНИТЕЛЬНЫХ ОРГАНОВ УЗБЕКИСТАНА В 20-30-Е ГГ. XX ВЕКА (на примере Хорезмской области)

АННОТАЦИЯ

В данной статье описывается деятельность правоохранительных органов Хорезмского оазиса. В частности, проведение съезда по установлению новой формы правления в Хорезмской Народной Республике. На очередном съезде Хорезмской Народной Республики в надзорной деятельности правительства был внесен ряд изменений. В частности, Департамент полиции при юстиции был передан в ведение МВД.

В то же время наряду с руководителями Хорезмской Народной Республики руководители МВД были вынуждены бороться с силами внутренней оппозиции, а также с реформами в сельском хозяйстве.

Ключевые слова

Республика Узбекистан, Хивинское ханство, Хорезмская Народная Республика, Министерство внутренних дел, Центральный исполнительный комитет, Узбекская ССР.

Ismoil A. Nurmetov,
Doctor of Philosophy (PhD), Senior Lecturer,
Department of History,
Urgench State University, Urgench, Uzbekistan.
ismoil_nur84@mail.ru

ACTIVITY OF LAW ENFORCEMENT AGENCIES OF UZBEKISTAN IN THE 20-30S. XX CENTURY (using the example of the Khorezm region)

ABSTRACT

This article describes the activities of law enforcement agencies in the Khorezm oasis. In particular, holding a congress to establish a new form of government in the Khorezm People's Republic. At the next congress of the Khorezm People's Republic, a number of changes were made to the government's supervisory activities. In particular, the Police Department under Justice was transferred to the jurisdiction of the Ministry of Internal Affairs.

At the same time, along with the leaders of the Khorezm People's Republic, the leaders of the Ministry of Internal Affairs were forced to fight the forces of internal opposition, as well as reforms in agriculture.

Index Terms

Republic of Uzbekistan, Khanate of Khiva, Khorezm People's Republic, Ministry of Internal Affairs, Central Executive Committee, Uzbek SSR.

1. Dolzarbligi:

Dunyodagi globallashuv jarayonlarida g'oyaviy va informatsion kurash, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy qarama-qarshiliklar kabi voqea-hodisalarning xalqaro miqyosda dolzarb masalaga aylanayotganligi davlatlar xavfsizligini ta'minlash masalasiga e'tibor kuchaytirilmoqda. Bu o'z navbatida davlat mexanizmining asosiy bo'g'inlaridan biri bo'lgan huquq-tartibot organlarining davlat boshqaruvi va fuqarolar xavfsizligini ta'minlovchi organ sifatidagi o'rni va rolini kuchaytirib borish zaruratini namoyon qiladi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasi milliy xavfsizligini ta'minlashning tashkiliy, huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy chora-tadbirlari izchillik bilan amalga oshirib kelinmoqda. Xalqaro huquqiy shartnoma, konvensiyalarning qoidalarini milliy qonunchilikka tatbiq etish asosiy masalalardan biriga aylangan.

Bu borada O'zbekiston xalqlari tarixida uzoq va yaqin o'tmishda huquq-tartibot organlari shakllanishining tarixiy negizlarini tahlil qilish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

2. Metodlar:

Maqolada O'zbekiston hududida, jumladan Xorazm viloyatida huquq-tartibot organlarining yuzaga kelishi va rivojlanishi yoritigan. Huquq-tartibot idoralarining shakllanish bosqichlari sohoga oid huquqiy mahbalar, arxiv materiallari hujjatlari va ilmiy-ommabop nashrlarida ma'lumotlar hamda matbuot nashrlari asosida ochib berilgan.

3. Tadqiqot natijalari:

Tarixdan ma'lumki, Xiva xonligi 1920-yil 2-fevralda tugatilib, Xiva xoni Said Abdullaxon taxtdan voz kechganligi to'g'risidagi manifestni imzoladi [1:315]. 1920-yil 4-aprelda bolsheviklarning tashabbusi bilan Xivada o'tkazilgan umumiy yig'ilishda Xorazm kompartiyasi tuzilib, yosh xivaliklar partiyasini tarqatib yuborildi. 1920-yil 26-30-aprelda xon tuzumi

ag‘darilgandan so‘ng vujudga kelgan ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy o‘zgarishlarni qonunan rasmiylashtirish uchun Xorazm xalq vakillari qurultoyi chaqirildi. Qurultoyda Xiva xonligini tugatilganligini e‘lon qilindi va mamlakatni Xorazm Xalq respublikasi deb e‘lon qilindi. Shuningdek, qurultoyda Xorazm Xalq respublikasida yangi boshqaruv shaklidagi hokimiyat tuzildi. Qurultoyda sobiq yosh xivaliklarni a‘zosi Polvonniyoz Xoji Yusupov boshchiligida Xalq Nozirlari Kengashi tuzildi [2:49].

1920-yil 9-aprelda Xorazm Xalq respublikasida Ichki ishlar nozirligi ta‘sis etildi va “mamlakatda militsiya boshqarmasini tashkil etish va Xiva shahrini himoya qilish to‘g‘risida” hukumat qarori qabul qilindi [3:36]. Mazkur hujjatga muvofiq yangi tashkil etilgan militsiya boshqarmasi ichki ishlar nozirligi tarkibida emas, balki Adliya nozirligi qoshida tuzildi. Xorazm Xalq respublikasi birinchi adliya noziri vazifasiga Xiva xonligi davrida, 1912-1916 yillarda Qozi kalon bo‘lib ishlagan va “Yosh xivaliklar” harakatining faollaridan bo‘lgan mashhur huquqshunos Boboovun Salimov saylangan. Militsiya boshqarmasi boshlig‘i lavozimiga “Yosh xivaliklar” harakatining faollaridan bo‘lgan Nazir Sholikorov tayinlandi. Shu tariqa Xorazm Xalq respublikasida ilk huquq tartibot idorasi shakllandi va ular zimmasiga militsiya kadrlarini tanlash, tarbiyalash, jangovar va taktik tayyorgarligini oshirish vazifalari yuklatildi.

Xorazm Xalq respublikasining navbatdagi qurultoyida hukumat tarkibidagi nozirliklarda bir qator o‘zgartirishlar amalga oshirildi. Jumladan, Adliya qoshidagi militsiya boshqarmasi Ichki ishlar nozirligi ixtiyoriga o‘tkazildi. Ichki ishlar noziri lavozimiga Xorazm Xalq respublikasi rahbariyati tarkibida bir yildan buyon faoliyat olib borayotgan Hasan Ermatov tasdiqlandi [4:46,214]. Ro‘zmat Panaev esa ushbu qurultoyda Xiva shahar militsiya boshlig‘i qilib tayinlangan [5:2]. Umuman olganda 1920-1924 yillar davomida Xorazm Xalq respublikasi ichki ishlar noziri lavozimida Nazir Sholikorov, Hasan Ermatov, Qalandar Hojiev, O‘roz Irmonov, Menglixo‘ja Ibniaminov, Matkarim Abdusalomovlar faoliyat yuritishgan [4:26,188,80].

Xorazm Xalq respublikasi rahbarlari qatori Ichki ishlar nozirligi rahbarlari qishloq xo‘jaligidagi qayta tiklash bo‘yicha islohotlar o‘tkazish bilan birga ichki muxolifatchi kuchlarga qarshi ham kurash olib borishga majbur bo‘ldilar.

1924-yilda Xorazmda mehnat haqidagi qonunlar kodeksi, jinoyat va sudlov kodekslari kuchga kirdi. Bu kodekslar ommaviy-siyosiy hayotini birmuncha tartibga solish va qonunchilikni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Xorazm Xalq Respublikasi davrida respublikada ishlab chiqilgan qonun, dekretlarning bajarilishini nazorat etuvchi maxsus idora - Adliya nozirligi bo‘lgan.

Xorazm Xalq Respublikasidagi Oliy inqilobiy sud va adliya nozirligi qoshida xalq sudi tashkil qilindi. Umumjinoiy va fuqarolik jinoyatlarini ko‘rib chiqish va hal qilish maqsadida tashkil qilingan xalq sudiga shu davrda Xorazm Xalq respublikasi Adliya nozirining o‘rinbosari bo‘lib ishlayotgan Abdulvohid Qoriev raislik qildi [4:7].

1920-yil 27-30-aprel kunlari bo‘lib o‘tgan xalq vakillarining I - Butunxorazm qurultoyida Xorazm Xalq respublikasining birinchi konstitutsiyasi qabul qilindi. Konstitutsiya Kirish so‘z, 13 bob, 37 moddadan iborat edi [6:41-46]. Konstitutsiya respublikaning barcha erkaklariga, ayollariga va barcha millatlariga so‘z erkinligi, matbuot, majlis o‘tkazish, tashkilotlar tuzish va boshqa demokratik huquqlar berilganligini aks ettirdi [7:18].

Xorazm Xalq respublikasi Markaziy ijroiya komitetining 1921-yil 10-iyuldagi majlisida Adliya nozirligining ishlari ko‘rib chiqilib uning tarkibi takomillashtirildi. Adliya noziri muovini shtati berildi. Uning rayonlardagi shtatlari, yasovullari, kirim-chiqim ishlari bilan shug‘ullanuvchilar va boshqalar holati yaxshilandi” [7:34].

1920-24 yillardagi respublika davrida 1920-yil 9-apreldan 1921-yil 6-martgacha B. Salimov, 1921-yil martdan 23-maygacha A. Qutlimurodov, 1921-yil 23-maydan sentyabr oyigacha O. Muhammadrahimov, 1921 sentyabr oyidan 1923-yil 22-oktyabrgacha M. Rahimov, 1923-yil 22-oktyabrdan 1924-yil 26-martgacha S. Jumaniyozov, 1924-yil 26-martdan iyul oyigacha yana B. Salimov, 1924-yil iyuldan avgust oyi oxirigacha N. Aytaqov adliya noziri vazifasida faoliyat ko‘rsatganlar.

1923-yil 18-20 oktyabrda o'tkazilgan Butunxorazm Sovetlarining IV qurultoyida qabul qilingan yangi Konstitutsiya asosida bu davlat sovet sotsialistik respublikasiga aylantirildi [8:8-12] va 1924 yil martida bu yerda prokuratura idorasi tashkil etildi [9:143].

1924-yilning 24-sentabr kuni XXSR Markaziy Ijroiya Komiteti qaroriga asosan adliya xalq nozirati haqidagi yangi nizom qabul qilingan. Xalq nozirati haqidagi nizomga muvofiq adliya xalq noziri bir vaqtning o'zida respublika prokurori ham hisoblanar, respublikadagi qonuniylik ustidan umumiy nazoratni amalga oshirish vazifasi unga yuklatilgan edi. XXSRning birinchi prokurori qilib, Xonov degan kishi tasdiqlandi. Shuningdek Xorazmdagi viloyatlarda 5 ta sovet xalq sudlari ham tashkil qilindi [10:148].

Xorazm SSR Markaziy komitetining 1924-yil 22-noyabrdagi qaroriga binoan Xorazm Sovetlarining MIK va Xalq Nozirlar Kengashi o'z faoliyatini 30-noyabrda tugatadi hamda Xorazm inqilobiy komiteti tashkil etiladi. Inqilobiy komitetning 1924-yil 25-noyabrdagi 1-sonli buyrug'i bilan Ibrohim Mansurov viloyat davlat prokurori etib tayinlangan [11:4,18]. Shu tariqa XXSR tugatilishi va Xorazm oblastining tashkil etilishidagi siyosiy-huquqiy jarayonlarda davlat prokurori sifatida I.Mansurov faoliyat ko'rsatgan.

1920-1930 yillarda XXSRning, keyinchalik Xorazm viloyatining (okrug) davlat prokuraturasi viloyatning hozirgi ma'muriy markazi Urganch shahrida emas, XXSRning shu paytdagi poytaxti Xiva shahrining Deshon qal'asida joylashgan "Nurullaboy" saroyida faoliyat ko'rsatgan [12:178].

1924-yil 30-noyabrdan 1925-yil 13-fevralgacha XXSRning so'nggi 17-40 protokol qaroriga binoan Xorazm oblast Revkomi tashkil qilindi va unga qurultoyga hozirlik ko'rish, barcha davlat ishlariga rahbarlik qilish vazifasi yuklatildi. O'sha vaqtda oblast revkomi lavozimiga Karim Baltaev tayinlandi.

1925-yil 13-fevralda O'zbekiston SSRning 1-s'ezdi Buxoro shahrida o'tkazildi. Mazkur s'ezdda qabul qilingan deklaratsiyaga muvofiq O'zbekiston SSRning tashkil topganligi qonuniylashtirildi [13:170]. Deklaratsiyaga muvofiq respublika tarkibiga Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Qashqadaryo, Zarafshon, Surxondaryo va Xorazm viloyatlari kiritildi. Dastlab O'zbekiston SSR tarkibiga Tojikiston ASSR ham kiritilgan.

1924-1926 yillarda O'zbekiston SSR tarkibida Xorazm rasman oblast deb nomlangan. 1926-1930 yillar mobaynida Xorazm okrug deb yuritilgan va 1930 yilgacha ma'muriy markaz Xiva shahri bo'lgan. Bu davrda Xorazm okrugi ma'muriy-xududiy jihatdan uezdlarga bo'lib boshqarilgan. Shu bilan birga Yangi Urganch, Gurlan va Xiva uezdlarida prokuraturalar ham faoliyat olib borgan. 1925 yilda okrug prokuraturasining shaxsiy tarkibi sakkiz kishidan iborat bo'lgan. Jumladan, prokuror o'rinbosari, yordamchisi, kotib, tarjimon, jurnalist, mashinist va xat tashuvchi xodimlardan iborat edi. Xiva shahri, Yangi Urganch, Gurlan rayonida uchastka prokurori bo'lib, prokuratura tarkibi prokuror yordamchisi va ish yurituvchi shtati bo'lgan xolos.

1926 yilga kelib Xorazm viloyatida prokurorlik nazoratida aniq tizim vujudga kelgan. 1924-yil 25-noyabrdagi XXSR Markaziy Ijroiya Komitetining 1-sonli buyrug'i bilan davlat prokurori vazifasiga tayinlangan I.Mansurov, viloyat tashkil etilish jarayonida va tashkil etilgandan keyingi davrda viloyatning birinchi prokurori sifatida faoliyat yuritadi [11:4,18].

Xorazm viloyat sifatida to'liq shakllanib bo'lgach, viloyat ijroiya komitetining 1925-yil 27-oktyabrdagi 5-sonli buyrug'i bilan I.Mansurov viloyat prokurori, A.Umarov uning o'rinbosari lavozimiga tayinlandi. 1926-yilda Xorazm viloyat prokuraturasida 5 nafar xodim, shundan 2 nafar tezkor xodim xizmat qilgan. I.Mansurov viloyat prokurori, S.Naimbaev o'rinbosari, S.Silaev kotib, T.Kaneev yordamchi kotib va B.Avezniyazov xat tashuvchi vazifasida faoliyat ko'rsatgan.

Bu davrda prokuror nazoratini amalga oshirishga faqat bir shtat ajratilgan. Yanada aniqroq aytganda okrugdagi 300 ming odamga bir prokuror to'g'ri kelgan. O'rtacha 3700 km² hududda transport vositasiz va telefon aloqasi bo'lmagan sharoitda inson huquqlarini himoya qilishi va qonun buzilmasligining oldini olish vazifasi bir kishi zimmasiga yuklatilgan edi.

Bu holatga o'sha davrdagi milliy kadrlar, mahalliy tilni biladiganlar yetishmaganligi, tegishli qo'llanma va huquqshunoslikka oid adabiyotlar bilan ta'minlanmaganlik, ishlash uchun eng

oddiy sharoitlar bo'lmaganligi qo'shilsa, tizimdagi muammo va qiyinchiliklar haqida ma'lum tasavvur paydo bo'ladi.

Xorazm oblast hududiy boshqarma boshlig'ining Gubanovning 1926-yil 26-fevraldagi 19-sonli buyrug'iga asosan Yangi Urganch, Gurlan uezd prokuraturalariga alohida shtapm va muhr yasatishga ruxsat berilgan.

Buyruqqa ko'ra, muhr o'rtasida davlat gerbi joylashtirilishi kerakligi va aylanasida uezd prokuraturasi nomi yozilishi kerakligi ko'rsatilgan.

1926-yil avgust oyidagi Xorazm viloyat prokurorining Yangi Urganch uyezdi bo'yicha yordamchisi Matniyazovning prokurorlik faoliyat yuzasidan oylik hisobotiga ko'ra tergovchilar tomonidan prokurorga 37 ta ish yuborilgan. Ko'rib chiqish natijasi bo'yicha jinoyat ishlarining 14 tasi yuzasidan ayblov xulosasi tasdiqlangan, 10 tasi qo'shimcha tergov harakatlari o'tkazish uchun qaytarilgan, 11 tasi tugatilgan. Hisobot davrida 6 ta ishlar ish yurituvda qoldiqqa qolgan. Bundan tashqari, prokuror yordamchisi 5 ta ijroiya komiteti yig'ilishlarida ishtirok qilgan, 2 ta ayblov nutqi bilan qatnashgan, 6 marotaba jazoni ijro etish muassasalarini tekshirgan, 7 ta, shularning 5 tasi mansabdor shaxslarning harakatsizligi ustidan shikoyatlar kelib tushgan, shikoyatlar asosida mansabdorlarga nisbatan 3 ta jinoyat ishi qo'zg'atilgan.

Bundan tashqari prokuraturaning anketasi bo'lib, unda yuritilgan mahalliy kadrlarga alohida e'tibor qaratilgan.

Xorazm viloyat davlat arxivida saqlanayotgan hujjatlarga ko'ra, 1927-yilda prokuratura tizimi 8 shtatdan iborat bo'lgan. Shulardan 3 tasi operativ shtat hisoblangan. Bu davrda Abdurahim To'raev Xorazm okrugi prokurori lavozimida ishlagan, prokuror o'rinbosari lavozimida Semyon Ribalchenko, sekretar vazifasida Ivan Kildishev, tarjimon sifatida Ilyas Mogarichev, mashinistka vazifasida Sofiya Abramova, Kurer vazifasida Matyoqub Bobojonovlar ishlagan [14:45-48].

4. Xulosalar:

1930-1932 yillarda O'zbekiston SSRning yangi ma'muriy-hududiy jihatdan o'zgartirishlar kiritilgan bo'lib okruglar faoliyati tugatilgan. Okruglar tarkibidagi rayonlar to'g'ridan-to'g'ri markazga – poytaxt Toshkentga bo'ysundirilgan. Shunga ko'ra, o'sha vaqtda O'zbekiston SSR tarkibida 1494 ta qishloq sovetiga bo'lingan 71 ta rayon va 204 ta qishloq sovetiga ega 9 ta shahar bo'lgan.

1932-yil 23-aprelda yana ma'muriy-hududiy o'zgartirishlar kiritilib, okruglar qayta tashkil qilingan. Bu davrda Xorazm okrug ma'muriy markazi Yangi Urganch shahri bo'lib, tarkibida 10 ta tuman – Bog'ot, Gurlan, Mang'it, G'ozovot, Urganch, Hazorasp, Xonqa, Xiva Shovot va Yangiariq tumanlari va Xiva shahri kiritilgan. Ana shu ma'muriy-hududiy boshqaruv davrida yuqoridagi rayonlarda prokuraturalar ham faoliyat olib borgan. 1938 yildan 1940 yilgacha viloyat prokurori bo'lib I.G.Ayrapetyans faoliyat ko'rsatadi.

Umuman olganda 1920-30-yillarda Xorazm viloyat prokuraturasi prokurorlari va xodimlari tomonidan jamiyat hayotida qonun ustivorligini ta'minlash, huquq-tartibot posboni sifatidagi vazifalarini astoydil bajarib kelganlar.

Iqtiboslar/References:

1. Qo'shjonov O., Polvonov N. Xorazmdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va harakatlar. - Toshkent:, 2007. – B. 315 (Koshjanov O., Polvonov N. Socio-political processes and actions in Khorezm. - Tashkent:, 2007. – P. 315)
2. O'zMA, I-125-fond, 1-ro'yxat, 609-ish, 49-varaq (UzMA, Fund I-125, List 1, Case 609, Sheet 49)
3. Xorazm viloyati IIB "Mehnat va jangovar shuhrat muzeyi" materiallari. Urganch, 2014 y (Materials of the Khorezm Region IIB "Museum of Labor and Battle Fame". Urganch, 2014)
4. O'zMA, M-71-fond, 1-ro'yxat, 3-yig'ma jild, 46, 214-varaqlar; 1-ro'yxat, 1-ish, 7-varaq; 1-ro'yxat, 2-ish, 26-varaq; 1-ro'yxat, 25-ish, 188-varaq; 37-ish, 80-varaq. (UzMA, fund M-71, list 1, collective volume 3, sheets 46, 214; List 1, work 1, sheet 7; List 1, Case 2, Sheet 26; List 1, case 25, sheet 188; Case 37, sheet 80)

5. “Xorazm xabarlari” gazetasi, 1921-yil 11-iyul ("Khorazm News" newspaper, July 11, 1921)
6. История Хорезмской Народной Советской Республики. Сборник документов. Т.: Изд-во "Фан" Узбекской ССР, 1976. - С. 41-46 (History of the Khorezm People's Soviet Republic. Collection of documents. T.: Publishing house "Fan" of the Uzbek SSR, 1976. – P. 41-46)
7. Matkarimov M. “Xorazm Respublikasi: davlat tuzilishi, nozirlari va iqtisodi. Urganch: “Xorazm” nashriyoti, 1993, -B.18 (Matkarimov M. "Republic of Khorezm: state structure, supervisors and economy. Urganch: "Khorazm" publishing house, 1993, -B.18)
8. O‘zMA, 62-fond, 1-ro‘yxat, 19-ish, 8-12-varaklar (UzMA, fund 62, list 1. Case 19, sheets 8-12)
9. Adolat yo‘lida 70 yil.Toshkent: O‘zbekiston” nashriyoti, 1992, -B.143 (70 years on the path of justice. Tashkent: Uzbekistan" publishing house, 1992. -P.143)
10. “Xorazm tarixi zamonaviy tadqiqotlarda”, Toshkent-Urganch, 2019-yil. -B.148 ("History of Khorezm in modern studies", Tashkent-Urganch, 2019. – P.148)
11. Xorazm viloyat davlat arxivi. 601-fond, 1-ro‘yhat, 1-ish, 4,18-varaqlar (State archive of Khorezm region. Fund 601, Schedule 1, Case 1, Sheets 4,18)
12. Matniyozov M. Xorazm tarixi. 1-jild. Urganch, 1997 (Matniyozov M. History of Khorezm. Volume 1. Urganch, 1997)
13. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. T.12. – T.: O‘zME nashriyoti, 2006. – B.170 (National Encyclopedia of Uzbekistan. T.12. – T.: UzME publishing house, 2006. – P.170)
14. Xorazm viloyat davlat arxivi. 18-fond, 1-ro‘yhat, 1-ish, 45-48-varaqlar (State archive of Khorezm region. Fund 18, list 1, case 1, sheets 45-48)



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

7 ЖИЛД, 2 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ТОМ 7, НОМЕР 2

LOOK TO THE PAST
VOLUME 7, ISSUE 2

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000